INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

‘’OSIYO TARAQQIYOT TIKLANISH‘’ BANKINING O’ZBEKISTON RIVOJIGA QO’SHGAN HISSASI

Iskandarov Bekzod Abdijalilovich
bekzodiskandarov1998@gmail.com
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi katta o’qtuvchisi
Suyunov Hayot Uchqun o’g’li
suyunovhayot017@gmail.com

Murtozaqulov Bekzod Sherzod o’g’li

bsbekzod07@gmail.com

Samarqand iqtisodiyot va servis institute bank-moliya xizmatlari fakulteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola bugungi kunda iqtisodiyotimizdagi rivojanishlar va yaratilayotgan erkinliklar bo’yicha ‘’ Osiyo taraqqiyot va biznes ‘’ bankining aralshuvini o’rganadi. Maqola davomida ushbu bank iqtisodiyotimiz uchun qanchalik zarur hamda nega kerak degan savollarga javob qidiramiz. Maqola hozirda ushbu bank qo’llab quvvatlayotgan elektr taminoti tarmog’ini takomillashtirish , raqamlashtirish , yer ajratish va aholini ko’chirish , suv taminoti va tabiy ofatlarga tayyorgarlik kabi bo’limlarni nega hozirda zarur bo’lib turganligi va investitsiyalarning asosini tashkil etayotganini ko’rib chiqadi. Maqola natijasida talabalar investitsiya nima va ‘’Osiyo taraqqiyot va biznes ‘’ banki haqida qisqacha hulosaga keladilar.

Kalit so’zlar :

investitsiya, integratsiyalash**,** raqamlashtirish, moliyalashtiruv jarayoni, tashqi qarz partfeli, tashqi qarz.

Annotation

This article explores the development of the Asian Development and business bank on developments and freedoms created in our economy today. Throughout the article, we will look for answers to questions about how much this bank is necessary for our economy and why it is needed. The article examines why sections such as improving the electricity supply network that this bank currently supports , digitization , land allotment and population relocation , water supply and disaster preparedness are now necessary and are the basis of investment. As a result of the article, students come to a brief summary about what is investment and the Bank ‘ Asian Development and business‘.

Keywords:

investment, integration, digitization, financing process, external debt partfel, external debt.

Аннотация

В этой статье рассматривается вмешательство Азиатского банка развития и бизнеса в развитие нашей экономики и свободы, которые создаются сегодня. На протяжении всей

статьи мы будем искать ответы на вопросы о том, насколько этот банк необходим для нашей экономики и почему. В статье рассматривается , почему такие разделы , как улучшение электроснабжения , оцифровка, землеустройство и переселение, водоснабжение и подготовка к стихийным бедствиям, которые в настоящее время поддерживает этот банк, в настоящее время необходимы и составляют основу инвестиций. В результате статьи студенты приходят к краткому выводу о том, что такое инвестиции, и о банке ‘ Азиатский банк развития и бизнеса‘.

Ключевые слова :

инвестиции, интеграция, оцифровка, процесс финансирования, внешний долговой портфель, внешний долг.

Kirish

Qay soha bo’lmasin uning gullab yashnashi va rivoji uchun albatta moliyaviy ko’mak zarurdir , bunday masalada davlatlar uchun turli karparativ tashkilotlar va birlashmalar yordamga keladi buning misoli sifatida istiqomat qilayotgan o’lkamiz O’zbekistonni olaylik. Rivojlanish yo’lida u ikki tashkilot bilan kelishuv imzolagan va asosiy moliyaviy masalalarni ular bilan muhokamalashadi va yechim topishadi . Ularning biri aynan ‘’ Osiya taraqqiyot va tiklanish’’ banki hisoblanadi. Ushbu bank va davlatimiz o’rtasida aloqalar 1995-yil a’zolik to’g’risidagi qaror bilan boshlandi va hozirga qadar davom etib kelmoqda. Hozirga qadar ushbu bank va bizning o’rtamizda turli turdagi savdo iqtisodiy aloqalar o’z yechimini topgan. Elektr taminoti tarmog’ini takomillashtirish, raqamlashtirilgan tarmoqlar yaratish, yer ajratish va aholini ko’chirish, suv taminoti va tabiy ofatlarga tayyorgarlik shular jumlasidandir.

Asosiy qism

Bugungi kunga qadar sohalar rivoji uchun ushbu bank xalqaro miqiyosda turli jonbozliklarni ko’rsatib kelmoqda misol uchun elektr taminoti tarmog’ini takomillashtirish sohasida Osiyo taraqqiyot banki O’zbekistonga 125 million AQSH dollari qiymatida investitsiya qilishni maqullagan bu mablag’lar elektr uzatish tarmog’ini rivijlantirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya sarfini ko’paytirish uchun integratsiyalashtirilgan. Ushbu mablag’lar to’laqonli o’zini oqlay olgan desak mubolag’a bo’lmaydi chunki avvalgi bilan taqqoslaganda bugungi kunda yashil energiya ishlab chiqarish hajmi anchayin yuksalgan desak mubolag’a bo’lmaydi 2025-yil 9-dekabr holatiga ko’ra yurtimizda quvvati 5582 MVt bo’gan quyosh va shamol elektr stansiyalari ishlamoqda va bu ko’rsatgich umumiy tiklanuvchi energiya hajmining sezilarli darajada oshganini bildiradi.

Raqamlashtirish ushbu soha elektr taminoti tarmoqlarini raqamlashtirish hamda tarmoq samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uhbu soha uchun ko’makdoshimiz bizga ‘’O’zbekiston Respublikasida shaxarlarni kompleks rivojlantirish’’ dasturi kesimida 59 millon AQSH dollari miqdorida qarz bitimini imzolagan.

Yer ajratish va aholini ko’chirish bu borada ham biz anchayin ko’nikmaga egamiz negaki ushbu sohada ham ‘’O’zbekiston milliy elektr tarmoqlari’’ AJ tomonidan yurutilgan ‘’ Magistral elektr tarmoqlarini madernizatsiya va rekanstruksiya qilish’’ ishi bo’yicha ko’rib chiqishimiz mumkin. Umumiy olganda yer ajratish va aholini ko’chirish kamsonli davlat etibor qaratadigan mavzulardan biridir bu amaliyot katta foyda olib kelsagina o’z isbotini topadi.

Suv taminoti bo'yicha O'zbekistonning g'arbiy qismida ichimlik suvi ta'minoti tizimlarini rivojlantirish Osiyo Taraqqiyot Banki bilan hamkorlik loyihalaridan biri. Loyiha 2019-yilda tasdiqlangan bo'lib qarz miqdori 30 million AQSH dollarini tashkil etadi.

OTB 2025-yilda O'zbekistonning o'rta ta'lim tizimida fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) yo'nalishidagi bilim sifatini oshirish uchun 100 million AQSH dollari miqdorida imtiyozli kredit ajratgan. Loyiha doirasida mamlakat bo'ylab 200 ta maktab zamonaviy laboratoriyalar, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi va quyosh energiyasi tizimlari bilan jihozlanadi, o'qituvchilar 6 ta STEM fanlari bo'yicha malaka oshiradi. Qizlarning STEM sohalariga qiziqishini oshirish uchun motivatsion kampaniyalar va individual kasb-hunar maslahat dasturlari ishlab chiqilgan.

2025-yil noyabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev va OTB prezidenti Masato Kando o'rtasidagi uchrashuvda "Kengaytirilgan strategik sheriklik dasturi"ni imzolash tashabbusi ilgari surilgan. Ushbu dastur infratuzilmani rivojlantirish, texnik va muhandislik kadrlarini tayyorlash, xotin-qizlar va yoshlarni yangi kasblarga o'qitish, kambag'allikni qisqartirish, ipoteka bozori va xususiy sektorni rivojlantirish kabi masalalarni qamrab oladi.

Bundan tashqari, 2025-yil may oyida 23 ta yangi investitsiya loyihasini o'z ichiga olgan, umumiy qiymati 3,6 milliard AQSH dollariga teng bo'lgan dastur imzolangan bo'lib, bu loyihalar ta'lim, ichimlik suvi ta'minoti, energetika, transport va moliyaviy-texnik yordam sohalarini qamrab oladi. O'zbekiston 2025–2026-yillarda OTB Boshqaruvchilar kengashiga raislik qiladi va 2026-yil may oyida bankning yillik boshqaruvchilar kengashi yig'ilishi birinchi marta Samarqand shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ayniqsa, "Kengaytirilgan strategik sheriklik dasturi", 3,6 milliard dollarlik yangi loyihalar paketi va 2026-yilda Samarqandda bo'lib o'tadigan OTB Boshqaruvchilar kengashi yig'ilishi O'zbekistonning mintaqaviy yetakchi sifatidagi nufuzini mustahkamlash bilan birga, kelgusida ham bank bilan uzoq muddatli, o'zaro manfaatli hamkorlik davom etishini kafolatlaydi.

Umuman olganda ushbu bank mintaviy bank hisoblanib u 15 ta davlat hukumatlari tomonidan imzolangan qaror yuzasidan 1966-yil 22-avgustda kuchga kirgan. Osiyo taraqqiyot banki tarkibiga a'zo sifatida BMTning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha '' Osiyo – Tinch okeani'' kamissiyasiga a'zo bo'lgan davlatlar kira oladi. Hozirgi kunda 68 hamkor davlatlardan rashkil topgan ushbu tashkilotning asosiy maqsadi Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotiga va tashqi savdosiga ko'maklashishishdir. Tashkilotning dominantlari AQSH va Yaponiya bo'lib ular mablag'ning 1\3 qismiga hokimlik qilishadi va shuning uchun ham ular istalgan shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Ushbu tashkilot bugungi kunga qadar O'zbekiston bilan qiymati 665,5 mln AQSH dollariga teng bo'lgan 13 ta loyihani amlga oshirib kelmoqda.

Osiyo taraqqiyot banki O'zbekistonning barqaror iqtisodiy taraqqiyoti va tarmoqli rivojlanishida ishonchli strategik hamkorga aylangan. 1995-yildan buyon davom etayotgan aloqalar faqat moliyaviy ko'mak bilan cheklanib qolmay, balki real sektordagi – energiya, suv ta'minoti, raqamlashtirish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy infratuzilma kabi ustuvor yo'nalishlarda aniq natijalarga olib kelmoqda.

Xulosa :

Ushbu maqola ‘’Osiyi taraqqiyot banki’’ ning O’zbekiston rivojiga qo’shgan hissasi tahlilini amalga oshirdi. Moliyalashtirish va u bilan bog’liq sohadagi masalalarni qisman bo’lsada tadbiq etdi. Yuqorida aytib o’tilgan sohalar nima ekanligi va ular bo’yicha davlatimizda qanday ishlar olib borilayotganligi haqida so’z yurutdi. Natija qisman bo’lsada ular haqida malumotga ega bo’lishda hizmat qildi.

Natijalar amaliy va nazariy jihatdan muhim amaliyotga ega. Biz hozirga qadar bilgan ammo to’liq malumotga ega bo’lmagan ko’pgina sohalar va ular ustidagi olib borilgan ishlar to’g’risida qiziqarli malumotlar va o’rinli xulosalar olindi. Sanoatimizmimg bugungi kunga qadar qay yo’sinda rivojlanib borgani va o’tish bosqichlari qanday bolgani o’rganildi.

Kelajakdagi maqolalar rivojlanish prinsplarini yanada chuqurrroq va tartibli tarzda o’rganilishi talab etiladi. Bugungi kun iqtisodiy holatini tadbiq etishga chuqurroq ahamiyat berish va tadbiq zarur. Shuningdek, ushbu jarayonda yo’l qo’yilayotgan kamchiliklar va ularning tadbiqiga katta etibor berilishi zarur.

Umuman olganda ushbu tadqiqot yosh iqtisodchilar uchun oz bo’lsada malumot beradi degan umiddaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Wikipedia:Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki

https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_tiklanish_va_taraqqiyot_banki

2.Gazeta uz:OTB O’zbekistondagi mikromoliyalash sektorini mustahkamlash uchun 300 mln dollar ajratdi

https://www.gazeta.uz/oz/2025/11/12/otb/

3.Wikipedia: Osiyo taraqqiyot banki

https://uz.wikipedia.org/wiki/Osiyo_taraqqiyot_banki

4.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 09.04.2019 yildagi PQ-4271-son

https://lex.uz/docs/-4320729